



O'ZBEKİSTONDA UY XO'JALIKLARI SEKTORİNİNG IQTISODIY FAOLLIGINI
OSHIRISH YO'NALİSHLARI

Berdiev G'ayrat

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0000-0001-5037-3452

gayratbek2207@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklari sektorining iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida 2019–2024 yillar oralig'idagi statistik ko'rsatkichlar, mintaqaviy tafovutlar, daromadlar va xarajatlar dinamikasi, iste'mol strukturasidagi o'zgarishlar va davlat siyosatining ta'sir kuchi baholandi. Uy xo'jaliklarining daromadlarini shakllantirishda mehnat bozori, migratsiya, ijtimoiy to'lolar va raqamli iqtisodiyot omillarining ahamiyati alohida o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, uy xo'jaliklarining real daromadlarida barqarorlik mavjud bo'lishiqa qaramay, ayrim mintaqalarda resurslar yetishmovchiligi, iste'mol va sarmoya imkoniyatlarining cheklanganligi kuzatilmoxda. Maqolada uy xo'jaliklarining iqtisodiy faolligini oshirish uchun beshta asosiy yo'nalish taklif etilgan: moliyaviy xizmatlar infrastrukturasi rivoji, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy siyosatni takomillashtirish, boshqaruvni raqamlashtirish va hududiy differensial strategiyalarni ishlab chiqish. Ushbu yondashuvlar uy xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligi, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: uy xo'jaliklari, iqtisodiy faollik, real daromadlar, iste'mol struktura, mintaqaviy tafovutlar, moliyaviy barqarorlik, davlat tartibga solishi, oilaviy tadbirkorlik.

**НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СЕКТОРА
ДОМОХОЗЯЙСТВ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Бердиеев Гайрат

Гулистанский государственный университет

Аннотация. В статье системно анализируются направления повышения экономической активности сектора домашних хозяйств в Республике Узбекистан. В исследовании оценивались статистические показатели за период 2019–2024 годов, региональные различия, динамика доходов и расходов, изменения в структуре потребления, а также влияние государственной политики. Отдельно изучалась значимость таких факторов, как рынок труда, миграция, социальные выплаты и цифровая экономика, в формировании доходов домохозяйств. Результаты анализа показали, что, несмотря на стабильность реальных доходов населения, некоторые регионы испытывают нехватку ресурсов и ограниченные возможности потребления и инвестиций. В статье предлагается пять основных направлений повышения экономической активности домохозяйств: развитие инфраструктуры финансовых услуг, поддержка семейного предпринимательства, совершенствование социальной политики, цифровизация управления и разработка регионально дифференцированных стратегий. Эти подходы расширяют возможности домохозяйств по достижению финансовой стабильности, эффективному использованию ресурсов и содействию экономическому росту.

Ключевые слова: домохозяйства, экономическая активность, реальные доходы, структура потребления, региональные различия, финансовая устойчивость, государственное регулирование, семейное предпринимательство.

DIRECTIONS FOR INCREASING THE ECONOMIC ACTIVITY OF THE HOUSEHOLD SECTOR IN UZBEKISTAN

Berdiev Gayrat

Gulistan State University

Abstract. This article systematically analyzes the directions of increasing the economic activity of the household sector in the Republic of Uzbekistan. During the study, statistical indicators, regional differences, income and expenditure dynamics, changes in the consumption structure, and the influence of state policy for the period 2019–2024 were assessed. The importance of the labor market, migration, social payments, and digital economy factors in the formation of household income was separately studied. The results of the analysis showed that, despite the stability of real household incomes, some regions are experiencing a shortage of resources, limited consumption and investment opportunities. The article proposes five main directions for increasing the economic activity of households: development of financial services infrastructure, support for family entrepreneurship, improvement of social policy, digitization of management, and development of regional differential strategies. These approaches expand the opportunities for households to achieve financial stability, use resources efficiently, and contribute to economic growth.

Keywords: households, economic activity, real incomes, consumption structure, regional differences, financial stability, state regulation, family entrepreneurship.

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim jihatlaridan biri – uy xo'jaliklarining iqtisodiy tizimdagи o'rnini aniqlash, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bevosita bog'liq. Uy xo'jaliklari nafaqat iste'molchi, balki sarmoyador, jamg'aruvchi va ishlab chiqaruvchi subyekt sifatida ham iqtisodiy muvozanatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (Lusardi & Mitchell, 2014). Ayniqsa, ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan iqtisodiy siyosat yuritilayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun bu sektorni samarali boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarda uy xo'jaliklari daromadlarini oshirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, hududiy tengsizlikni kamaytirish va ijtimoiy himoya tizimini kengaytirishga qaratilgan farmon va qarorlari ushbu yo'nalishdagi islohotlar miqyosini kengaytirdi. Biroq amaliyotda uy xo'jaliklarining real daromadlaridagi mintaqaviy tafovutlar, iste'mol strukturasi va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarida sezilarli nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda (World Bank, 2022). Bu esa davlat siyosatini yanada chuqurlashtirilgan tahlil asosida, segmentatsiyalangan va algoritmik yondashuvlar bilan boyitishni talab qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, uy xo'jaliklarini boshqarishda faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga emas, balki mikro darajadagi xatti-harakatlar, ehtiyojlar va ehtimoliy xavflarni hisobga olgan holda davlat siyosati yuritish muhimdir. Gentilini va boshqalar (2022) tomonidan ishlab chiqilgan "Dynamic Social Protection" modeli, turli uy xo'jaliklari toifalariga moslashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy choralarini real vaqt rejimida belgilash imkoniyatini beradi. Bu esa mintaqaviy disbalanslar va daromadlardagi notekislikni yumshatishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – O'zbekiston uy xo'jaliklari sektorining iqtisodiy faolligini tahlil qilish, real daromadlar va iste'mol tuzilmasidagi tendensiyalarni aniqlash hamda davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot 2019–2024 yillar uchun rasmiy statistik ma'lumotlarga tayanilgan holda, mintaqaviy kesimda empirik tahlil, regressiya modellashtirish va algoritmik baholash usullariga asoslanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Uy xo'jaliklari sektori iqtisodiyotning mikroassosiysi sifatida nafaqat aholi turmush darajasi, balki makroiqtisodiy barqarorlik, bandlik, ijtimoiyadolat va investitsion muhitga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda global iqtisodiy adabiyotda ushbu sektorni tartibga solish va rivojlantirishga oid yondashuvlar yangi bosqichga ko'tarilgan. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi sharoitda aholi daromadlarining o'zgaruvchanligi, yashirin iqtisodiy faoliyatning kuchayishi va ijtimoiy yordam tizimlarining qayta ko'rib chiqilishi bu yo'nalishda yangi ilmiy izlanishlarni yuzaga chiqardi.

Abate va boshqalar (2020) COVID-19 pandemiyasining norasmiy sektor va uy xo'jaliklari daromadlariga ta'sirini tahlil qilib, ijtimoiy himoya tizimlarining moslashuvchanligi, real vaqt monitoringi va ijtimoiy-targetlangan yondashuvlarning yetishmasligi tufayli uy xo'jaliklari iqtisodiy zaiflashishga duch kelganini ko'rsatadi. Ular iqtisodiy siyosatni faqat byudjetli transferlar bilan cheklab bo'lmasligini, balki iqtisodiy faoliyatga jalg etuvchi mexanizmlarni kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

Fernández va Ortiz-Juarez (2021) esa tengsizlik va ijtimoiy nohaqlik holatlarida davlat aralashuvi mexanizmlarining rolini chuqur o'rjanib, ayniqsa daromadlar bo'yicha gender va mintaqaviy tafovutlar uy xo'jaliklari darajasida qanday iqtisodiy oqibatlarga olib kelishini aniqlaydi. Ularning fikricha, uy xo'jaliklarini siyosiy obyektdan ko'ra, siyosiy qarorlar markaziga aylantirish orqali siyosat samaradorligini oshirish mumkin.

Xitoy va Janubiy Koreya tajribasini tahlil qilgan Ma va Lin (2023) tadqiqotida esa raqamli platformalar orqali uy xo'jaliklarini iqtisodiy faoliyatga jalg etish, "uyda ishslash"ni qo'llab-quvvatlash va mikrokredit tizimlari orqali resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish samaradorligi ko'rsatiladi. Bu yondashuvlar O'zbekiston sharoitida ham mintaqaviy differensial siyosat yuritish zarurligini tasdiqlaydi.

Jahon banki (2023) "Poverty and Shared Prosperity" hisobotida esa uy xo'jaliklarining barqaror iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi va ularning daromadlariga ta'sir etuvchi makro va mikro omillar haqida chuqur tahlil berilgan. Xususan, bandlik sifatining pastligi, rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanishdagi to'siqlar va ayollar ishtiropining cheklanganligi daromadlar va sarmoya darajasini pasaytiruvchi omillar sifatida ko'rsatilgan.

Ravallion (2020) esa uzoq muddatli turmush darajasi strategiyalarida uy xo'jaliklari darajasida ta'sirchan siyosat yuritish uchun indikatorlar tizimini takomillashtirish, ma'lumotlarni mikro darajada yig'ish va ularni real vaqt rejimida tahlil qilish muhimligini urg'ulaydi. U moliyaviy yordam, kredit va investitsiya imkoniyatlarini faqat makro ko'rsatkichlarga asoslanib emas, balki uy xo'jaliklari hayotiy modeli asosida baholashni taklif etadi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda uy xo'jaliklari sektoriga oid adabiyotlarda yondashuvlar chuqurlashgan, ya'ni mikroiqtisodiy tahlillar, ijtimoiy guruqlar segmentatsiyasi, algoritmik tahlillar va raqamlı texnologiyalar asosida boshqaruv mexanizmlarini yaratish muhim ekani isbotlangan. Bu esa O'zbekiston sharoitida mavjud yondashuvlarni yangilash, real darajadagi muammolarni aniqlash va mintaqaviy tafovutlarni hisobga olgan holda davlat siyosatini takomillashtirish uchun zarur ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklari sektorining iqtisodiy faolligini oshirish, daromadlar dinamikasi va resurslardan foydalanish imkoniyatlarini baholash asosiy maqsad etib belgilandi. Shu munosabat bilan tadqiqot metodologiyasi

zamonaviy iqtisodiy tahlil yondashuvlari, statistik hisob-kitoblar va hududlararo farqlarni aniqlovchi empirik usullar bilan boyitilgan.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan uy xo'jaliklari sektori asosiy obyekt sifatida belgilandi. Predmet esa ushbu sektor daromadlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy va institutsiyal omillar hamda mintaqaviy tafovutlar bo'yicha iqtisodiy faollik darajasidir. Tadqiqotda 2019–2023 yillar oraliq'idagi rasmiy statistik ma'lumotlar asos qilib olindi. Jumladan, Davlat statistika qo'mitasi, Jahon banki, UNDP va boshqa xalqaro tashkilotlar hamda ilmiy nashrlar...

Tahliliy yondashuvlar sifatida deskriptiv tahlil, komparativ tahlil, regressiya modellashtirish, hududiy segmentatsiya va algoritmik baholash vositalari uyg'unlashtirilgan. Uy xo'jaliklarining daromad manbalari, iste'mol struktura, moliyaviy xizmatlarga kirish va xarajatlar ko'rsatkichlari umumiyligi baholandi. O'zbekiston tajribasi boshqa davlatlar – xususan, Xitoy, Vyetnam va Indoneziya tajribasi bilan solishtirilib, iqtisodiy faollik darajasidagi farqlar o'rganildi.

Uy xo'jaliklarining real daromadiga ta'sir qiluvchi omillar (ishsizlik darajasi, inflyatsiya, migratsion pul o'tkazmalari, kreditga kirish imkoniyati) ko'p omilli regressiya modeli orqali tahlil qilindi. Modellashtirishda $Y = \beta_0 + \beta_1X_1 + \beta_2X_2 + \dots + \beta_nX_n + \varepsilon$ ko'rinishidagi umumiyligi tenglama asosida hisob-kitoblar bajarildi. Bu yerda Y – uy xo'jaligi daromadi, X – ta'sir etuvchi iqtisodiy o'zgaruvchilar, ε – tasodifiy xatolik sifatida qaralgan.


Tadqiqot doirasida viloyatlar kesimida daromadlar darajasi, iste'mol va sarmoya imkoniyatlari guruhlarga ajratilib, mintaqaviy segmentatsiya usulida chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, uy xo'jaliklarining iqtisodiy xatti-harakatini bashorat qilish imkonini beruvchi besh bosqichli algoritmik baholash modeli ishlab chiqildi. Hisob-kitoblar Microsoft Excel, SPSS va Datawrapper dasturlari yordamida amalga oshirildi.

Metodologik asos sifatida ehtiyojkorlik jamg'arma nazariyasi (Carroll, 1997), raqamlı inklyuziya va uy xo'jaliklari kuchlanishini ifodalovchi model (Ma & Lin, 2023) hamda ko'p omilli iqtisodiy zaiflik yondashuvi (Ravallion, 2020) dan foydalanildi. Bu yondashuvlar uy xo'jaliklari daromadlarini barqarorlashtirish va ularni iqtisodiy faol subyektga aylantirish bo'yicha ilmiy asos vazifasini o'tadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zamonaviy keng qamrovli islohotlar va tashqi chaqiriqlar sharoitida O'zbekiston Respublikasining uy xo'jaliklari sektoridagi iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan davlat siyosati aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish va ularning farovonligini oshirishga yo'naltirilgan. Xonardonlar holatini tahlil qilish zarurati, ularning ixtiyorida bo'lган resurslar bilan ta'minlanganligi haqida ma'lumot olish, iste'mol, tirikchilik va rivojlanish uchun xarajatlarni rejalashtirish va qoplashga tayyorlikni aniqlash bilan izohlanadi. Tematik nashrlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uy xo'jaliklarining hududiy xususiyatlari, ularning faoliyat yuritish shakllari va natijadorligi hanuzgacha yetarli darajada o'rganilmagan.

Zamonaviy islohotlar va tashqi tahdidlar sharoitida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati ijtimoiy dasturlarini amalga oshirish va aholining farovonligini oshirishga yo'naltirilgan. Uy xo'jaliklarining holatini tahlil qilish alohida ahamiyatga ega, chunki ularning mavjud resurslar bilan ta'minlanganligi iste'mol, yashash va rivojlanish xarajatlarini rejalashtirish imkoniyatlarini belgilaydi. Tematik tadqiqotlar tahlili esa uy xo'jaliklarining hududiy xususiyatlari, ularning faoliyat mexanizmlari va natijadorligi yetarlicha o'rganilmaganini ko'rsatmoqda, bu esa davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqishni talab etadi (1-rasm).



1-rasm. 2024-yilda yashash joyiga qarab o'r ganilgan uy xo'jaliklari tarkibi foizlarda

Manba: statistika agentligi ma'lumotlari.

Uy xo'jaliklarining xususiyatlari nafaqat mamlakatning umumiyl rivojlanish darajasini, balki alohida hududlar holatini ham aks ettiradi, chunki ular aniq ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siriga bog'liq. O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklarining katta qismi qishloq hududlarda joylashgani sababli, ularning resurslar bilan ta'minlanishi va iqtisodiy faolligiga bu holat sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Uy xo'jaligi a'zosi hisobiga to'g'ri keladigan mavjud resurslar miqdoridagi farqlar hududiy nomutanosibliklarni ko'rsatib, aholi daromadlarini oshirish va turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan differensial qo'llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqish zaruratinini yuzaga keltiradi.

Tahlil natijalariga asoslanib, O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklari sektorining iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha quyidagi yo'nali shlarni ajratish mumkin:

Birinchi yo'nali sh — moliyaviy xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq. Davlat siyosati uy xo'jaliklarining kredit, depozit dasturlari, sug'urta va investitsion mahsulotlar kabi zamonaliviy moliyaviy vositalarga kirishini kengaytirishga xizmat qilishi lozim. Ta'lim dasturlari va axborot kampaniyalari orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish oilalarga o'z resurslarini samarali boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish va jamg'armalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa ularning moliyaviy barqarorligini va iqtisodiy faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchi yo'nali sh — uy xo'jaliklari doirasida tadbirkorlik faolligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni nazarda tutadi. Davlat kichik va o'rta biznesni yaratish va rivojlantirishda yordam ko'rsatishi mumkin, xususan, subsidiya, soliq imtiyozlari hamda maslahat xizmatlari orqali. Qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida zamonaliviy texnologiyalar va innovatsion uslublarni joriy etish qo'shimcha daromad manbalarini yaratadi va mahalliy iqtisodiy faollilikni rag'batlantirib, oilalar farovonligini oshiradi.


Uchinchi yo'nali sh — daromadlar tengsizligini kamaytirishga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosatni takomillashtirishga qaratilgan. Uy xo'jaliklarining daromadlari bo'yicha hududlar o'rtasidagi tafovutlarni hisobga olgan holda, kommunal xizmatlar uchun subsidiyalar, ijtimoiy to'lovlar va bandlik dasturlarini o'z ichiga olgan maqsadli ijtimoiy dasturlarni joriy etish muhimdir. Bu chora-tadbirlar aholining zaif qatlamlari turmush darajasini oshirish bilan birga, ichki bozorning iste'mol talabini kuchaytiradi.

To'rtinchi yo'nali sh — uy xo'jaliklari resurslarini boshqarishni raqamlashtirishga qaratilgan. Davlat xizmatlariga, masofaviy ta'lim dasturlariga va onlayn maslahat xizmatlariga kirishni ta'minlaydigan axborot tizimlari va elektron platformalarning joriy etilishi statistik ma'lumotlarni tezkor yig'ish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa aholining real ehtiyojlari va hududiy xususiyatlariga mos davlat yordam choralarini ishlab chiqish va moslashtirishga xizmat qiladi.

Beshinchi yo'nali sh — hududiy farqlarni hisobga olgan holda mintaqaviy siyosatni rivojlantirishdan iborat. Uy xo'jaliklarining ta'minlanganlik darjasini, iste'mol xatti-harakati va tuzilmasini baholash bo'yicha batafsил tadqiqotlar asosida hududlarga moslashtirilgan

dasturlar ishlab chiqiladi. Davlat yordam choralarini mahalliy xususiyatlarga moslashtirilsa, resurslar teng taqsimlanadi, iqtisodiy faoliyat qo'shatlantiriladi va ijtimoiy tengsizlik kamayadi (2-rasm).

Umuman olganda, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy siyosatni kuchaytirish, boshqaruvni raqamlashtirish va mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqishni o'z ichiga olgan kompleks choralar uy xo'jaliklari sektorining iqtisodiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa aholi farovonligini ta'minlash va O'zbekistonning zamonaviy, barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyotini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida har bir oila a'zosiga to'g'ri keladigan resurslar hajmining o'rtacha darajasining oyiga dinamikasi, ming so'm

Manba: statistika agentligi ma'lumotlari.

Uy xo'jaliklarining xususiyatlari nafaqat O'zbekiston Respublikasi miqyosidagi taraqqiyot darajasini, balki alohida hududlarning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga bog'liq holda ularning rivojlanish darajasini ham aks ettiradi. O'tkazilgan statistik tadtqiqotlar ayrim hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda, uy xo'jaliklarining ulushi yirik shahar aglomeratsiyalariga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Aholining bunday hududiy taqsimoti va xo'jalik faoliyatining qishloqlarda to'planishi uy xo'jaliklarining resurslar bilan ta'minlanganligi va iqtisodiy holatiga sezilarli ta'sir qiladi.

Aholi farovonligi va uy xo'jaliklari ishtirokchilarining turmush darajasi ularning daromadlari va moliyaviy resurslarga ega bo'lishiga bog'liq. O'zbekistonning bir qator hududlarida, xususan agrar yo'nalishdagi viloyatlarda, uy xo'jaliklarining o'rtacha daromadlari respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlardan past bo'lib, bu holat aholining xarid qobiliyatiga, iste'mol ehtiyojlarini va investitsion xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, ayrim hududlarda uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslaridagi yillik o'sish sur'atlari mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlardan yuqori bo'lishi mumkin. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda daromadlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish va hayot sifatini oshirish uchun ijobjiy imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, O'zbekistondagi uy xo'jaliklari iqtisodiy faolligi mavsumiylik bilan chambarchas bog'liq — ayniqsa, qishloq xo'jaligi ishlari davrida, turizm va bayram mavsumlarida qo'shimcha daromad manbalari yuzaga chiqadi (masalan, xizmat ko'rsatish, mahsulot realizatsiyasi).

Uy xo'jaliklari daromadlari tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, pul tushumlari asosiy ulushni tashkil qiladi — ularning umumiyligi daromaddagi hissasi 93–97% atrofida bo'lib, qolgan 2–3% esa tabiiy tushumlar (masalan, uy sharoitida yetishtirilgan sabzavot, meva va boshqa mahsulotlar) hisobiga to'g'ri keladi. Bu esa asosiy mehnat faoliyatidagi ish haqi miqdorini

oshirish va tadbirkorlik faolligini rivojlantirishni pul daromadlari o'sishining asosiy omili sifatida muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Raqamli texnologiyalar jadal joriy etilayotgani va mehnat bozorining transformatsiyasi sharoitida O'zbekiston Respublikasida mehnat munosabatlarining yangi shakllari shakllanmoqda — bu to'g'ridan-to'g'ri ish beruvchilar bilan ham, vositachi agentliklar yoki raqamli platformalar orqali ham amalga oshmoqda. Bunday o'zgarishlar aholining moliyaviy daromadlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'zini o'zi band qilish va tadbirkorlikni rivojlantiradi, bu esa o'z navbatida xizmatlar va mahsulotlar hajmining oshishi, shuningdek, davlat byudjetiga tushumlar ko'payishiga olib keladi.

O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy tuzilmasidagi tafovutlar esa, o'z navbatida, hududlarning rivojlanish xususiyatlari va mahalliy iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Masalan, 2024-yil dekabr oyida Toshkent viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad taxminan 1 200 000 so'mni tashkil etdi va bu so'nggi yillardagi barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, respublikaning bir qator viloyatlarida aholi moliyaviy ta'minotining real o'sish sur'atlari barqarorlashish tendensiyasiga ega, ijtimoiy tengsizlik darajasi (Jini indeksi orqali o'lchanadigan) esa mo'tadil bo'lib qolmoqda, bu esa qashshoqlik darajasining bosqichma-bosqich kamayayotganidan dalolat beradi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, ba'zi hududlarda qashshoqlik darajasi 18% atrofida bo'lib, umumiyl tendensiya ijobjiy yo'nalishda.

Daromadlarning 20% eng yuqori va 20% eng past guruhlar o'rtasidagi taqsimoti ko'rsatkichlari respublikaning turli hududlarida iqtisodiy resurslar taqsimotidagi sezilarli nomutanosiblikni ko'rsatmoqda. Yetakchi iqtisodiy markazlarda aholi daromadlari ancha yuqori bo'lib, bu hududlar qishloq joylarga nisbatan ancha ko'p iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ega. Masalan, Toshkent shahri kabi markaziy hududlarda jon boshiga to'g'ri keladigan daromad ko'rsatkichlari qishloq xo'jaligi yetakchilik qiladigan viloyatlarga nisbatan ancha yuqori, bu esa daromadlar tafovutining ortishiga olib kelmoqda va davlat tomonidan faol aralashuvni, ushbu nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda uy xo'jaliklari daromadlari yashash joyi, bandlik shakli va hududiy iqtisodiyot tuzilmasiga bog'liq holda sezilarli darajada farqlanadi. Markaziy aglomeratsiyalarda daromad darajasi va turmush sifati qishloq hududlariga nisbatan ancha yuqori. Qishloq joylarida esa zamonaviy moliyaviy va ijtimoiy resurslarga kirish imkoniyati cheklangan. Shu sababli, daromadlar tafovutini kamaytirish, qashshoqlikni pasaytirish va iqtisodiy o'sishni barqaror taqsimlash maqsadida hududiy xususiyatlarga moslashtirilgan davlat qo'llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklari sektorini samarali davlat tomonidan tartibga solish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bu yondashuv hududiy xususiyatlar, mavsumiy iqtisodiy faollik, ish haqi darajasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash omillarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish va daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlarini moslashtirish uy xo'jaliklarining barqaror rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratib, mamlakat aholisining umumiyl farovonligi va iqtisodiy o'sishiga muhim hissa qo'shadi.

Aholining moliyaviy imkoniyatlari tovar va xizmatlarga bo'lgan xarid qobiliyatini belgilasa, xarajatlar va jamg'armalarning ko'rsatkichlari esa ushbu daromadlarning amalda qanday ishlatilayotganini ifodalaydi. O'tkazilgan tadqiqot uy-joy sharoitlarini baholashda alohida ahamiyatga ega, chunki iste'mol tuzilmasining asosini aholining turli ijtimoiy guruhlari tomonidan olingan pul daromadlari tashkil qiladi. Iste'mol xarajatlari tarkibini tahlil qilish orqali mamlakatdagi joriy iste'mol holatini chuqur baholash, aholi turmush darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida sodir bo'layotgan o'zgarishlar dinamikasini kuzatish mumkin bo'ladi.

2021–2024-yillar davomidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, har yili respublikada iste'mol hajmining o'sish sur'atlari 16% dan 38% gacha bo'lgan oraliqda bo'lgan. 2023-yilda umumiy iste'mol xarajatlarining kamaygani kuzatilgan bo'lsa-da, oziq-ovqat va xizmatlar uchun sarflangan xarajatlar ulushi umumiy iste'molga nisbatan ortgan. Bu esa iste'molchilarning xarajatlar tarkibida strukturaviy o'zgarishlar sodir bo'layotganini ko'rsatadi: oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan xarajatlar nisbatan kamayib borayotgan bir vaqtida, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarga sarflar o'sib bormoqda. Bu holat aholining turmush sifatining yaxshilanayotganidan va moddiy ehtiyojlarning yaxshiroq qondirilayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, 2021–2024-yillar davomida ayrim hududlarda uy xo'jaliklari tomonidan amalga oshirilgan operatsion xarajatlarning taxminan 40% qismi kommunal xizmatlar to'lovlariga to'g'ri kelgan. Bunda markaziy isitish uchun 11–20%, suv ta'minoti va boshqa resurslar uchun 1% dan 20% gacha, uy-joy va kommunal xizmatlar uchun esa 14–15% atrofida xarajatlar kuzatilgan. Oziq-ovqat mahsulotlariga iste'mol ulushining kamayishi fonida umumiy iste'mol xarajatlarining o'sishi va nooziq-ovqat tovarlariga talabning ko'payishi aholining turmush darajasining yaxshilanishiga va iqtisodiy farovonlikning ortishiga xizmat qilmoqda.

Uy xo'jaliklarining pul daromadlari aholining turli guruhlarining ehtiyojlarini qondirishda asosiy manba bo'lib qolmoqda va ularning taqsimoti respublika hududlaridagi iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlariga qarab sezilarli farq qiladi. O'zbekiston Respublikasining ayrim viloyat va tumanlaridagi pul daromadlari va iste'mol xarajatlariga oid ma'lumotlar tahliliga asoslanib quyidagi xulosalar chiqarildi.

2021–2023-yillar oralig'ida aksariyat hududlarda aholining real daromadlari oshgan: 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 9,7% o'sish qayd etilgan, 2023-yilda esa bu ko'rsatkich 3,4%ni tashkil qilgan. Shu bilan birga, turmush darajasining oshishi bilan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan xarajatlar ulushi kamaygan, umumiy iste'mol hajmi ortgan, xarajatlar tuzilmasi esa asta-sekin nooziq-ovqat tovarlariga yo'nalgan. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish 0,2%ga kamaygan bo'lsa, nooziq-ovqat tovarlariga xarajatlar 0,4%ga oshgan, bu esa iste'mol faolligining umumiy o'sishini ko'rsatadi.

2024-yilda uy xo'jaliklarining real pul daromadlari o'tgan yilga nisbatan 0,8%ga o'sgan. Biroq 2021-yildan boshlab ayrim hududlarda real daromadlar pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, bu holat 2023-yildagi musbat dinamika bilan qisman qoplangan: o'sha yili real daromad o'sishi atigi 0,1%ni tashkil etgan (2022-yildagi pensionerlar uchun bir martalik to'lovlar hisobga olingan holda). 2024-yilda esa real daromadlar o'sish sur'ati 0,8%ni tashkil etib, bu iste'mol infliyatsiyasining keskin pasayishi bilan bog'liq. Jumladan, 2024-yil dekabr oyida iste'mol narxlari indeksi respublikaning bir qancha hududlarida 3,0%ni tashkil etdi (2023-yilgi 4,3%ga nisbatan).

2024-yilda iste'mol kreditlari qisqarishi hisobiga qarz yukining kamayishi uy xo'jaliklarining real moliyaviy holatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, chakana kreditlar o'sish sur'ati 2023-yildagi 22,8%dan 2024-yilda 18,6%ga tushgan. Kredit portfeli, hatto ta'minotsiz kreditlar bo'yicha ham, sekinroq o'sishni namoyon qilgan, bu esa Markaziy bankning, xususan ipoteka kreditlash bo'yicha kuchaytirilgan talablariga bog'liq.

Shunga qaramay, 2024-yilda uy xo'jaliklarining real daromadlarini yanada oshirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator omillar saqlanib qolmoqda. Xususan, ish haqi o'sishi 2023-yildagi ko'rsatkichlarga nisbatan ancha past bo'lgan: 2024-yil yakuniga ko'ra o'rtacha ish haqi atigi 2,9%ga oshgan (2023-yilda bu ko'rsatkich 8,5%ni tashkil etgan). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra, 2023-yilda kuzatilgan ish haqi o'sishi davlat sektorida mehnat qiluvchi xodimlar ish haqining oshirilishi bilan bog'liq edi. Markaziy bank hisob-kitoblariga ko'ra, keyingi davrda davlat sektorida ish haqi o'sishi faqat 4,6%ni tashkil etgan, bu esa hozirgi iqtisodiyot sharoitida bu ko'rsatkichning past elastikligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda uy xo'jaliklari daromadlaridagi asosiy o'sish omili ish haqi bo'lib, u +1,7 foizlik punktga

oshgan. Eng kam ijobiy ta'sir esa ijtimoiy to'lovlar (+0,3 p.p.) va boshqa daromadlar (+0,1 p.p.) hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, majburiy to'lovlar bo'yicha salbiy ko'rsatkich 2023-yildagi -1,3 foizlik punktdan 2024-yilda -0,9 foizlik punktgacha pasaygan. Salbiy foiz stavkasi esa 2023-yildagi -0,3 p.p. ga nisbatan 2024-yilda -0,5 p.p. gacha oshgan.


2024-yilning uchinchi choragida real daromadlar bo'yicha 2021-yildan beri eng yuqori yillik o'sish qayd etilgan — +3,1%. Birinchi chorakda uy xo'jaliklarining real moliyaviy holati ijobiy yo'nalishda davom etgan, garchi 2023-yilning to'rtinchini choragida -1,8% va -0,8% yillik kamayish kuzatilgan bo'lsa ham.

Real pul daromadlarining sezilarli kamayishiga asosiy sabab sifatida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) stavkasining 18% dan 20% gacha oshirilgani va iste'mol narxlari indeksining o'sishi ko'rsatilmoqda: 2023-yil birinchi choragida +2,2%, 2024-yilda esa o'rtacha +5,2%. Ushbu omillar respublikaning ayrim hududlarida real moliyaviy ko'rsatkichlar o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Pul daromadlarining eng yuqori o'sishi 2024-yilning uchinchi choragida (+3,1%) kuzatilgan bo'lib, bu 2021-yildan buyon qayd etilgan eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Bu natija ish haqi o'sishi va inflyatsiyaning pasayishi bilan birga, daromadlar bazasining barqarorligi bilan ham izohlanadi. Taqqoslash uchun, 2023-yilning shu davrida aholining daromadlari deyarli o'zgarmagan.

2024-yil to'rtinchini choragida inflyatsiya yanada pasaygan bo'lsa-da, real daromadlar o'sish sur'ati uchinchi chorakka nisbatan sekinlashgan va yillik hisobda +1,1%ni tashkil etgan. Biroq bu ko'rsatkich 2023-yilning shu davriga nisbatan ancha ijobiy — o'sha vaqtida real daromadlar -0,8%ga kamaygan edi. Shu chorakda real ish haqi yillik hisobda 4,6%ga oshgan bo'lib, 0,5 foizlik punkt o'sishni tashkil etgan va 2023-yil shu davriga nisbatan 4,1%ga yuqori bo'lgan (3-rasm).

2023-yilda O'zbekistonda uy xo'jaliklarining real daromadlari so'nggi besh yil ichida birinchi marta o'sish qayd etdi. Bu davrda narxlar o'sishi atigi 0,1%ni tashkil etgan. 2024-yilda esa real ish haqi +2,9%ga, pensiyalar esa +1,5%ga oshgan bo'lib, bu umumiy real daromadlar o'sishidan (+0,8%) yuqori bo'lgan. Ushbu o'zgarishlar inflyatsiya va soliq bosimi kabi muammolarga qaramasdan, iqtisodiyotda ijobiy strukturaviy siljishlar sodir bo'layotganini ko'rsatmoqda.



3-rasm. Ish haqi dinamikasi va CPI, 2019-2024 – yillarda

Manba: statistika agentligi ma'lumotlari.

Shunday qilib, 2021–2024-yillar davomidagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda uy xo'jaliklarining pul daromadlari va iste'mol xarajatlari dinamikasi murakkab va o'zaro bog'liq omillar bilan belgilanmoqda. Real daromadlarning infliyatsiyaning pasayishi va xarajatlар tuzilmasining nooziq-ovqat tovarlariga yo'nalishi hisobiga oshishi aholining turmush darajasiga ijobji ta'sir ko'rsatmoqda.

Biroq, soliq yukining ortishi, xususan QQS stavkasining ko'tarilishi, shuningdek davlat sektorida ish haqi o'sishining sekinlashuvi barqaror real daromadlar o'sishiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Ushbu holatlarni inobatga olib, aholining daromadlarini qo'llab-quvvatlash, qarz yukini kamaytirish va mintaqalarda iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga qaratilgan kompleks davlat siyosatini amalga oshirish zarurligi ta'kidlanmoqda. Bunday choralar aholining turmush darajasini oshirish va mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

2019-yilda keskin pasayishdan so'ng (o'sha yilga nisbatan -9,0%), O'zbekiston Respublikasida real ish haqi barqaror o'sishni boshladi va 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 5,4%ga oshdi. Biroq, ish haqidan farqli o'laroq, real foydalaniladigan daromadlar hamda pensiyalar pasaygan va inqirozdan oldingi darajaga qaytmagan: 2024-yilda real pensiyalar 2019-yildagiga nisbatan 4,6%ga, real daromadlar esa 6,4%ga pastroq bo'ldi.

Bunga qaramasdan, jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari tahlil davomi, ayniqsa 2024-yilda barqaror o'sishda davom etdi. Xususan, 2024-yilda bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 6,1%ga oshdi va 1 oyda 35,2 ming so'mni tashkil etdi — bu 2023-yildagidan 2,0 ming so'mga, 2019-yildagidan esa 7,8 ming so'mga yuqoridir.

Ish haqi va jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad o'rtasidagi tafovut kengaymoqda, bu esa ish haqi o'sishining tezroq sur'atlar bilan davom etayotganini ko'rsatadi: 2019-yildagi 7,1 ming so'mdan 2024-yilda 12,3 ming so'mgacha.

2024-yilda minimal ish haqi va yashash minimumi o'rtasidagi nisbat sezilarli darajada o'zgardi. 2019–2023-yillar oralig'ida minimal ish haqi yashash minimumidan ancha past edi. Biroq, 2022-yilda "Minimal ish haqi to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan boshlab minimal ish haqi avvalgi yilning ikkinchi choragida aniqlangan yashash minimumidan kam bo'lmasligi belgilandi. Shunday qilib, 2024-yilda minimal ish haqi yashash minimumidan oshib ketdi: mos ravishda 11,3 ming so'm va 11,0 ming so'm.

Bundan tashqari, 2024-yil yanvar oyida Mehnat vazirligi yashash minimumini 2024-yilning to'rtinchchi choragida 11 012 so'mdan 10 609 so'mgacha pasaytirishni nazarda tutgan normativ hujjat loyihasini taqdim etdi.

O'zbekiston Respublikasida 2021–2024-yillar davomida uy xo'jaliklarining real daromadlari va iste'mol xarajatlari bo'yicha kuzatilgan tendensiyalar mamlakat iqtisodiy muhitidagi tarkibiy o'zgarishlar va davlat siyosatining samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Real ish haqi va pul daromadlaridagi o'sish aholining farovonligini oshirishda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, pensiyalar va real daromadlarning inqirozdan oldingi darajaga qaytmasligi bu jarayonning bir tomonlama kechayotganini ko'rsatadi.

Avvalo, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va yangi mehnat shakllarining shakllanishi aholining moliyaviy faolligini kuchaytirgan bo'lsa-da, bu daromadlar strukturasining notekis taqsimlanishiga olib kelgan. Ushbu holat Guiso va boshqalarning (2002) tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, turli daromad guruhlari orasida investitsiyalarga kirish imkoniyatlaridagi farqlarni kuchaytiradi. Ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi uy xo'jaliklarida moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklangani iqtisodiy tengsizlikni saqlab qolmoqda.

Shuningdek, pul daromadlarining real o'sishiga qaramay, infliyatsiya va soliqqa tortish siyosatining ahamiyati saqlanib qolmoqda. Bu holat Lusardi va Mitchell (2014) tomonidan iqtisodiy savodxonlik darajasining pastligi fonida aholining iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini cheklovchi omil sifatida ko'rsatiladi. Ayniqsa, QQS stavkasining oshirilishi (18%dan 20%ga) va iste'mol narxlari indeksining o'sishi uy xo'jaliklarining xarid qobiliyatiga bosim o'tkazgan.

Biroq, 2023–2024-yillarda inflyatsiya sur'atining pasayishi va real ish haqi o'sishining kuchayishi (Carroll, 1997) "buffer-stock" jamg'arish modeliga mos tarzda aholi tomonidan ehtiyyot choralarining kuchayishiga olib keldi. Bu jamg'arma miqdorining ko'payishi esa kelgusida uy xo'jaliklarining iste'mol va investitsion imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, davlatning daromadlar siyosatidagi o'zgarishlari, xususan minimal ish haqi va yashash minimumi o'rtasidagi tafovutning bartaraf etilishi (Mahmudova, Raximov, & Eshquvvatov, 2023), ijtimoiy himoya va tenglikni ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. Bunday chora-tadbirlar, Gentilini va boshqalarning (2022) pandemiyadan keyingi davlat aralashuvi samaradorligi haqidagi tahlillari bilan hamohangdir.

Yana bir muhim masala – hududlar o'rtasida daromadlar taqsimotidagi tafovutlar. Campbell va Mankiw (1991) tomonidan taklif etilgan daromad va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlik modeli asosida, markaziy hududlarda yuqori daromadlar iste'mol hajmini ko'paytirgan bo'lsa, qishloq joylarda bu bog'liqlik zaifroq ifodalangan. Bu esa davlat siyosatini hududiy differensiallashgan yondashuv asosida shakllantirish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklari sektorining iqtisodiy tizimdagи o'rni ortib borayotganini, biroq uning to'liq iqtisodiy salohiyati hali yetarli darajada safarbar etilmaganini ko'rsatdi. Empirik tahlillar shuni tasdiqladiki, uy xo'jaliklari real daromadlarining o'sishi ko'proq iste'mol xarajatlari bilan bog'liq bo'lib, moliyaviy jamg'arma va investitsiyaviy faollik ko'rsatkichlari past darajada saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, mintaqaviy farqlar, moliyaviy vositalarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, norasmiy bandlik va migratsiyaviy daromadlarning yuqori ulushi bu sektorning tizimli rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlil natijalari asosida uy xo'jaliklari sektorini davlat tomonidan yanada samarali tartibga solish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Uy xo'jaliklarini iqtisodiy siyosatning markaziy obyektiga aylantirgan holda maxsus davlat strategiyasini ishlab chiqish. Bu strategiya real daromadlarni oshirish, resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish va barqaror mehnat faoliyatini ta'minlashga qaratilishi lozim.

Mintaqaviy tafovutlarni kamaytirish maqsadida viloyatlar kesimida uy xo'jaliklarining daromad va iste'mol tuzilmasiga mos differensial yondashuvlarni joriy etish. Bu boroda algoritmik tahlilga asoslangan monitoring tizimi tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanishni rag'batlantirish, bank va mikromoliya xizmatlariga qulaylik yaratish orqali jamg'arma va investitsiya madaniyatini shakllantirish. Ayniqsa, ayollar va yoshlar uchun moliyaviy inklyuziya dasturlari muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari, subsidiya va grantlar, mahalliy infratuzilmalarni rivojlantirish orqali rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish.

Norasmiy bandlikni qonuniylashtirish, uyda ishslash shakllarini qo'llab-quvvatlash va migratsiyaviy daromadlarni rasmiy moliyaviy tizimlarga yo'naltirish mexanizmlarini kuchaytirish.

Umuman olganda, uy xo'jaliklarining iqtisodiy faolligini oshirish va ularning resurslarini milliy iqtisodiyotga jalb etish bo'yicha kompleks yondashuvlar talab etiladi. Taklif etilgan choralar uy xo'jaliklarining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlash va barqaror o'sish uchun mustahkam asos yaratadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Abate, G. T., de Weerdt, J., & Poschke, M. (2020). COVID-19 and informal work: Evidence from 11 cities. *World Development*, 139, 105330. <https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2020.105330>

- Campbell, J. Y., & Mankiw, N. G. (1991). *The response of consumption to income: A cross-country investigation*. *European Economic Review*, 35(4), 723–756. [https://doi.org/10.1016/0014-2921\(91\)90031-M](https://doi.org/10.1016/0014-2921(91)90031-M)
- Carroll, C. D. (1997). *Buffer-stock saving and the life cycle/permanent income hypothesis*. *The Quarterly Journal of Economics*, 112(1), 1–55. <https://doi.org/10.1162/003355397555133>
- Dostonbek Bahodir O'G'I Eshpulatov (2022). O'ZBEKISTON AGROSANOAT MAJMUASIDA INNOVATSIYALARNI JORIY QILISH HOLATINI BAHOLASH. *Academic research in educational sciences, TSAU (Conference)*, 16-32.
- Fernández, M., & Ortiz-Juarez, E. (2021). *Inequality and COVID-19: Income, race, and gender*. UNDP Working Paper. <https://www.undp.org>
- Gentilini, U., Almenfi, M., & Dale, P. (2022). *Social Protection and Jobs Responses to COVID-19: A Real-Time Review of Country Measures*. World Bank. <https://documents.worldbank.org>
- Guiso, L., Haliassos, M., & Jappelli, T. (2002). *Household portfolios*. MIT Press.
- Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). *The economic importance of financial literacy: Theory and evidence*. *Journal of Economic Literature*, 52(1), 5–44. <https://doi.org/10.1257/jel.52.1.5>
- Ma, Y., & Lin, W. (2023). *Household digital participation and inclusive growth: Evidence from East Asia*. *Journal of Asian Economics*, 86, 101559. <https://doi.org/10.1016/j.asieco.2023.101559>
- Mahmudova, Z., Raximov, A., & Eshquvvatov, N. (2023). *Oilaviy tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining iqtisodiy faolligi: muammolar va yechimlar*. *Iqtisodiy tadqiqotlar*, 5(2), 44–53.
- Ravallion, M. (2020). *On measuring global poverty*. *World Bank Research Observer*, 35(2), 112–135. <https://doi.org/10.1093/wbro/lkaa001>
- World Bank. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. <https://globalfindex.worldbank.org>
- World Bank. (2023). *Poverty and Shared Prosperity 2022: Correcting Course*. <https://www.worldbank.org/psp>
- Абдувохидов, А., Эшпўлатов, Д., Нурмухаммедова, М., & Қаршибоев, О. (2022). *Инновацион иқтисодиётда импорт ўрнини босувчи саноат ишлаб чиқаришларни ташкил этиши масалалари*. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(6), 23-33.